



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBİYACHISINING FAOLIYATINI  
TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR MAZMUN VA  
MOHIYATI**

**Andijon davlat pedagogika pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi  
Mirzayev Otabek Xusanovich  
Andijon davlat Pedagogika instituti 3-kurs talabasi  
Bozarova Maqsuda Salimjon qizi**

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15228370>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va mohiyati tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim tizimi bolalar shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli tarbiyachilarning pedagogik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ularning ish samaradorligini oshirish, metodik yondashuvlarini rivojlantirish va huquqiy mas'uliyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Normativ-huquqiy hujjatlar, tarbiyachi, davlat ta'lim standartlari, metodik yondashuv, huquqiy mas'uliyat, kasbiy rivojlanish, innovatsion texnologiyalar.

Maktabgacha ta'lim jamiyat taraqqiyotining muhim bo'g'ini bo'lib, bolalarning intellektual, jismoniy va axloqiy rivojlanishiga asos yaratadi. Ushbu jarayonda tarbiyachilar asosiy ro'lni o'ynaydi va ularning faoliyati tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular tarbiyachilarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, o'quv-tarbiya jarayonining sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va mohiyati tahlil qilinadi. Shu sababdan ham so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2017 yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5198-sonli farmoni, "Maktabgacha ta'limda me'yoriy asoslar" maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi va takomillashtirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar asosida samarali ish faoliyatini tashkil etish ko'zda tutilgan. Mazkur o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim yo'nalishi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot rahbarlari, pedagoglar, uslubchilar, oliy ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va uning amaliyotdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy talablarga mos holda tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirish va o'quv jarayonini takomillashtirish masalalariga ham e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, bu borada qator qonunlar, nizomlar va metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatlar tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini aniq belgilab berish bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, bolalarning intellektual va jismoniy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun qabul qilingan davlat ta'lim standartlari, pedagogik me'yorlar va metodik tavsiyalar tarbiyachilarga o'quv jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarini baholashda asosiy yo'riqnomalar sifatida xizmat qiladi.



Maktabgacha ta'lim tizimida normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va mohiyati faqat pedagogik jarayonlarni tartibga solish bilan cheklanib qolmay, balki bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish va tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni mamlakat ta'lim tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlash, sifatli ta'limni ta'minlash va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari huquq va majburiyatlarini aniq belgilash maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu qonun avvalgi tahrirlariga nisbatan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va uzluksiz ta'lim tamoyillarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Yangi qonunda tarbiyachilarning huquqlari va majburiyatlari, kasbiy faoliyati davomida malaka oshirish tartibi tarbiyachilarning ijtimoiy himoyasi va moddiy rag'batlantirish tizimi, xalqaro tajriba almashinuvi imkoniyatlari kabi jihatlar batafsil yoritilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish targ'ib qilinadi. Misol uchun, elektron o'quv resurslari, raqamli kutubxonalar va masofaviy ta'lim platformalari takomillashtiriladi. Undan tashqari qonun mamlakat ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ta'lim sifatini oshirish va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun huquqiy asos yaratishga qaratilgan. Ushbu qonun orqali ta'limning har bir bosqichi aniq tartibga solingan bo'lib, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, ta'lim sifati nazorati va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonlariga alohida urg'u berilgan.

Normativ hujjatlarning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat: Maktabgacha ta'lim tizimida qabul qilingan hujjatlar tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini aniq belgilab berish bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, bolalarning intellektual va jismoniy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun qabul qilingan davlat ta'lim standartlari, pedagogik me'yorlar va metodik tavsiyalar tarbiyachilarga o'quv jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarini baholashda asosiy yo'riqnomalar sifatida xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida mavjud normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirilib borilayotgan bo'lsa-da, ayrim muammolar mavjud. Amaliyotdagi hujjatlarning bajarilish darajasi. Tarbiyachilarning huquqiy savodxonligi yetarli darajada emasligi ba'zan hujjatlarning to'liq ijrosini ta'minlashda muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi: 1. Tarbiyachilarning huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida maxsus trening va seminarlarni ko'paytirish. 2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va raqamli resurslardan keng foydalanishni targ'ib qilish. 3. Pedagoglarning malakasini oshirishda xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalangan holda amaliy tajriba almashinuvi dasturlarini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilarning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bolaning intellektual, jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omildir. Davlat tomonidan qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar tarbiyachilar faoliyatini tartibga solish bilan birga, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ularning amaliyotda to'g'ri tatbiq etilishi kelajak avlodning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shu bois, pedagog-tarbiyachilarni normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirish va ularning ish faoliyatida ushbu hujjatlardan samarali foydalanishini ta'minlash kelgusida ta'lim sifatining yanada oshishiga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

<https://orcid.org/0009-0004-8134-3925> ORCID

1. Xusanovich, M. O. (2024, November). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TADBIRKORLIK MADANIYATIGA O'RGATISH. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 25, pp. 16-18).
2. Mirzayev, O. (2023). ERTAK-TERAPIYASI VA TADBIRKORLIK MADANIYATI ELEMENTLARINING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI, MUAMMO YECHIM VA  
ISTIQBOL" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel  
2025-yil



МЕТОДИК ТИЗИМИ. Инновационные исследования в современном мире: теория  
и практика, 2(25), 92-94.

3. Khusanovich, T. M. O. DEVELOPING STEAM COMPETENCIES IN  
OLDER PRESCHOOLERS.

4. Qodirova. N. R. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI  
FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH // Science and innovation. – 2022. – T. 1. – C. 109-  
111.